
Navoiydan so'z ochsam agar...

Bugun SamDCHTI akademik litseyida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining **582-yilligi** munosabati bilan "**Navoiydan so'z ochsam agar...**" mavzusida madaniy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Tadbirda akademik litsey o'quvchilari shoir g'azallari va ruboiylaridan namunalar o'qishib, ilm-fan, san'at arbobining hayoti va ijodiga bag'ishlangan sahna ko'rinishini ijro etishganligi tomoshabinlarda o'zgacha taassurot qoldirdi.

Bunday tadbirlarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad esa buyuk mutafakkir bobomizning boy adabiy merosini o'rganish va targ'ib qilish, yosh avlod ongiga Navoiy asarlarining badiiy xususiyati hamda tarbiyaviy ahamiyatini singdirish va bu orqali ularning ma'naviyatini yanada yuksaltirishdir.

